

Ishankulova Gulzoda Baxromovna,
Qarshi davlat universiteti "Psixologiya" kafedrası
katta o'qituvchisi, psixologiya fanlari bo'yicha
falsafa doktori (PhD)

OILADA SHAXSLARARO MUNOSABATLARDA GENDER TENGLIKNI TA'MINLASH MASALALARI

UO'K: 159.9

[HTTPS://DOI.ORG/10.34920/SO/VOL_2025_ISSUE_10_9](https://doi.org/10.34920/so/vol_2025_issue_10_9)

ISHANKULOVA G.B. OILADA SHAXSLARARO MUNOSABATLARDA GENDER TENGLIKNI TA'MINLASH MASALALARI

Maqolada o'zbek oilalarida gender tenglik munosabatlarini ta'minlashning ijtimoiy-psixologik omillari, bunda xotin-qizlar hamda erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlarni ta'minlash, xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonliklardan himoya qilish masalalari o'rganilgan. Unda xotin-qizlarning huquqiy va iqtisodiy ahvolini yaxshilash, ularning turmush va mehnat sharoitlarini yaxshilash, reproduktiv salomatligini saqlash, ayollar va erkaklarning jamiyat va oiladagi an'anaviy rolini o'zgartirish masalalari haqida fikr-mulohaza bildirilgan.

Tayanch so'z va tushunchalar: jamiyat, oila, gender tenglik, jinsiy tafovutlar, xotin-qizlar, oilaviy munosabatlar, er-xotin, tazyiq, zo'ravonlik.

ИШАНКУЛОВА Г.Б. ВОПРОСЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ГЕНДЕРНОГО РАВЕНСТВА В СЕМЕЙНЫХ ОТНОШЕНИЯХ

В статье рассматриваются социально-психологические факторы обеспечения гендерного равенства в узбекских семьях, обеспечения равных прав и возможностей женщин и мужчин, защиты женщин от угнетения и насилия. Содержит мнения об улучшении правового и экономического статуса женщин, улучшении условий их жизни и труда, сохранении репродуктивного здоровья, изменении традиционных ролей женщин и мужчин в обществе и семье.

Ключевые слова и понятия: общество, семья, гендерное равенство, половые различия, женщины, семейные отношения, пара, угнетение, насилие.

ISHANKULOVA G.B. ISSUES OF ENSURING GENDER EQUALITY IN FAMILY RELATIONS

The article examines the socio-psychological factors of ensuring gender equality in Uzbek families, ensuring equal rights and opportunities for women and men, protecting women from oppression and violence. Contains opinions on improving the legal and economic status of women, improving their living and working conditions, maintaining reproductive health, changing the traditional roles of women and men in society and the family.

Key words and concepts: society, family, gender equality, sexual differences, women, family relationships, couple, oppression, violence.

Kirish. Ma'lumki, oila murakkab ijtimoiy-madaniy hodisa hisoblanib, ijtimoiy hayotning abadiylikini, avlodlarning davomiyligi, tarbiyaning uzluksizligini ta'minlaydigan, kelajak avlod, qadriyatlar tizimiga o'z ta'sirini ko'rsatadigan ijtimoiy makon hisoblanadi. Shuning uchun ham azal-azaldan jamiyatda oilaga, undagi shaxslararo munosabatlarga, jumladan er-xotin o'rtasidagi munosabatlarga, oiladagi er-xotinning tutgan o'rni va vazifalariga hamda oilani boshqarish va munosabatlarni tartibga solish me'yorlariga har doim davlat, keng jamoatchilik, xususan, olimlar tomonidan alohida e'tibor qaratib kelingan. Ayniqsa, XXI asrga kelib demokratik institutlar sa'y-harakatlari natijasida ayollarning jamiyatdagi mavqei oshirildi, ularning roli va missiyasini baholashda yangicha qarashlar paydo bo'ldi, endi unga oilaning davomchisi, oila o'chog'ining qo'riqchisi sifatidagina emas, balki jamiyat hayotining faol ishtirokchisi nuqtai nazaridan qarala boshlandi. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda ham jamiyat hayotining barcha jabhalarida xotin-qizlar rolini kuchaytirish va maqomini oshirish, ularning huquq hamda qonuniy manfaatlarini himoya etish yuzasidan salmoqli ishlar amalga oshirilganligi ayni haqiqatdir.

Biroq, jamiyat hayotining barcha jabhalarida gender tenglikni ta'minlash va uni himoya qilish sohasidagi amalga oshirilgan islohotlar va ko'rilayotgan choralarga qaramasdan jahonda oiladagi shaxslararo va oilaviy munosabatlarda gender tenglik masalalari, oila a'zolarining ixtiyori va erkinligiga zid ravishda shaxsga ruhiy, jismoniy, kuch ishlatish yoxud emotsional tazyiq o'tkazish holatlari ortib bormoqda. Zo'ravonlik insonlarning irqiy, madaniy, diniy, ijtimoiy-iqtisodiy farqlardan qat'iy nazar har qanday oilada sodir bo'lishi mumkin. Ushbu muammo ko'p yillardan buyon nufuzli xalqaro tashkilotlarning diqqat markazida bo'lib kelmoqda, ularning tashabbusi bilan ushbu sohada muntazam konferensiyalar va tadqiqotlar o'tkazilib, tavsiyalar va namunaviy qonunlar ishlab chiqilmoqda. Shu nuqtai nazardan oilada ayollarning o'rni, xotin-qizlarning huquq-manfaatlarini ta'minlash, ehtiyojmand xotin-qizlarga ijtimoiy-huquqiy, tibbiy, psixologik va moddiy yordam ko'rsatish dolzarb muammolardan bo'lib qolmoqda. Ushbu jihatlarni inobatga olgan holda olganda o'zbek oilalarida shaxslararo munosabatlarda ta'siridagi gender tenglikning ijtimoiy-etnopsixologik xususiyatlarini ilmiy nuqtai nazardan tadqiq etish zarurati yuzaga kelmoqda.

Mavzuga oid ilmiy adabiyotlarning tahlili. Mamlakatning bugungi rivojlanish bosqichida zamonaviy tendensiyalar va globallashuv jarayonlarining jadallashuvida oila institutining ustuvor mavqei va muqaddas o'rnini mustahkamlash maqsadida oila instituti bilan bog'liq muammolarni tizimli bartaraf etish va bu boradagi milliy qonunchilikni takomillashtirishning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Shunga ko'ra, so'nggi yillarda amalga oshirilgan keng qamrovli islohotlar doirasida mamlakatimizda jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash, xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonliklardan himoya qilish masalalari bo'yicha mustahkam huquqiy asoslar yaratilayotganligi alohida ahamiyatga ega. Shu bilan birga, bugungi kunda o'z yechimini kutib turgan qator masalalar ham borki ularni psixologik nuqtai-nazardan o'rganish, tahlil qilish hamda muhokamalar asosida yechimlar topish bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Davr talabidan kelib chiqayotgan bu vazifalar o'zbek psixologlari oldiga qator muammolarni qo'yish bilan birgalikda ulardan gender muammolari, jinsiy tafovutlar masalasiga ilmiy jihatdan yondashishni taqozo etadi.

O'zbekiston psixologiyasida ham gender masalasi ko'pincha oila muammolari doirasida o'rganilishi an'anaga aylangan. Jumladan, mamlakatimiz psixologiyasida E.G'oziyev, G'.Shoumarov, V.Karimova, A.Jabborov, I.Yokubov, B.Qodirov, S.Mirxosilov, E.Usmonov, N.Sog'inov, F.Akramova, L.Karimova, N.Salayeva, O.Shamiyeva, O.Abdusattorova, M.Fayziyeva, I.Jabborov va boshqalar oilaviy hamda shaxslararo o'zaro munosabatlar doirasida alohida ahamiyat kasb etgan gender tafovutlar o'rganilgan. Ularning ilmiy tadqiqot ishlari bilan tanishganimizda, ularda asosan oila-nikoh munosabatlari, er-xotinning o'zaro kelishmovshilik muammolari, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, o'zbek oilasining o'ziga xos etnopsixologik xususiyatlari, oiladagi nizolar va ularni keltirib chiqaruvshi sabablar, ajralishlar va ularning oqibatlari muammosi bo'yicha tadqiqotlar olib borilganligiga guvoh bo'lamiz.

V.Karimovanning oila va oilaviy munosabatlarning ijtimoiy-psixologik omillari va oqibatlariga bag'ishlangan asarlarida oilada yoshlarni gender munosabatlarga tayyorlash, gender tasavvurlarning shaxs tarbiyasidagi o'rni, er-xotin va oiladagi sibling munosabatlarning bola shaxsiga ta'siri

masalalari ko'proq e'tibor qaratadi. Uning fikricha, oiladagi o'zaro munosabatlarning asosini tashkil etgan oilaviy rollarga oid tasavvurlar va ularning differentsiatsiyasi o'zining yosh, hududiy va jinsiy xususiyatlariga ega bo'lib, ular avvalo har bir oilaning ruhiy ma'naviy muhiti, u yerdagi milliy qadriyatlar, an'analar, rasm-rusumlar qanchalik saqlanib qolganligiga ham bog'liqligi asoslangan. Muallif nikoh yoshigacha bo'lgan yoshlar bilan oilali er-xotinning oilaviy ijtimoiy tasavvurlari o'rtasidagi asosiy farqlarni psixologik nuqtai nazardan tahlil qilib, uning sabablarini ko'rsatib o'tgan [2; 45-46 b.].

M.Fayziyevaning tadqiqotlarida ko'rsatilishicha, o'zbek oilalarida shaxslararo munosabatlar barqarorligini belgilashda er-xotin munosabatlaridagi o'zaro hurmat va ishonch, bir-birini yaxshi tushunish, farzandlar, muomala odobi, ong-lilik va ma'naviy axloqiy mavqe, uning moddiy ta'minlanganligi, uy-joy bilan ta'minlanganlik, rollar taqsimotining mosligi, jinsiy moslik muhim omillar hisoblanadi. Muallif, oilaviy nizolarning shakllanishi va ularning buzilib ketishida er-xotin fe'l-atvorining mos kelmasligi, farzandsizlik, sevgi va mehr-muhabbatning yetarli emasligi, uning byudjetini oqilona boshqara olmaslik asosiy omillar bo'lib, ro'zg'or ishlarining saranjom-sarishta va orasta emasligi, iqtisodiy ta'minotdagi kamchiliklar, rashk va ishonchsizlik, ota-onalarning er-xotin munosabatlariga aralashuvi, dunyoqarash va maslaklarning nomuvofiqligi, jinsiy nomoslik kabi omillar ham oilaviy munosabatlarda ziddiyatlarni kelib chiqarishda muhim o'rin tutadi, deydi [3; 121-122 b.].

Psixolog olim X.Karimov o'z ilmiy izlanishlarida o'zbek oilalarida er-xotin o'rtasida yuzaga keladigan nizoli holatlarni o'rganib, oilada sodir bo'layotgan har qanday nizolar oila a'zolarining nufuziga putur yetkazishini ta'kidlab o'tadi. Muallifning fikricha, o'zbek oilasida er-xotin orasidagi nizolar boshqa millat vakillari (rus, ukrain va boshqalar) oilalaridagi nizolardan farqlanishi bilan ajralib turadi. X.Karimov tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda o'zbek oilalari boshqa millat oilalaridan o'ziga xos etnopsixologik xususiyatlarga ega ekanligi bilan ajralib turishi, bunda er-xotin orasida nizolarning kelib chiqishiga milliy-madaniy muhitga xos bo'lgan nikoh oldi omillarining xususiyatlari, ya'ni ba'zida tanishish imkoniyatining bo'lmasligi yoki qisqaligi ham ta'sir etishi, natijada yuzaga kelgan nizo sabablarini tomonlar o'zidan

qidirmasligi, uni bartaraf etishda ota-onalarga tayanish, oiladagi o'zaro munosabatlar qo'pollik asosiga qurilishi va boshqa bir qator salbiy holatlar yuzaga kelishi kabi holatlar aniqlangan. Bundan tashqari, oilaviy nizolar, ko'p holatlarda, bir-birini tinglamaslik, ya'ni bir-birlarining istaklarini "eshitmaslik", hayotga bo'lgan qarashlarning farqlanishi, o'ta qattiq nazorat, ta'bi ustidan kulish, e'tibor yetishmasligi, ish faoliyatidagi muammolar tufayli yuzaga kelishi mumkinligi qator tajribalarda o'z isbotini topgan [4, 84-86 b.].

Tadqiqotning maqsadi o'zbek oilalarida shaxslararo munosabatlar ta'sirida gender tenglikni ta'minlashning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini tadqiq qilishdan iborat.

Tadqiqotning ilmiy mohiyati:

o'zbek oilalarida shaxslararo munosabatlar ta'siridagi gender tenglikning ijtimoiy-etnopsixologik xususiyatlarini er-xotin munosabatlariga uchinchi shaxsning bilvosita aralashuvi natijasida ayollarda akseleratik tabiatni paydo bo'lishini asoslanganligi;

oilalarida shaxslararo munosabatlar ta'siridagi gender tenglikning ijtimoiy-etnopsixologik xususiyatlari, shaxsda bolalik davridan meros bo'lib kelayotgan erkaklarda zo'ravonlikka moyil xulq-atvor omillarini shakllanishi dalillangan;

individual xulq-atvorning namoyon bo'lishiga ko'ra, oiladagi ijtimoiy rol va statusni obsessiv baholash, zaifroq subyektni negativ manipulyatsiya qilish hamda «impotent kayfiyat»ni uzoq vaqt davom etishi natijasida oila-nikoh munosabatlari siklining buzilishi va erkaklar tomonidan ayollarga nisbatan jismoniy kuch ishlatish motivlarini paydo bo'lishi asoslangan.

Tadqiqotning obyekti sifatida o'zbek oilalarida shaxslararo munosabatlar ta'sirida gender tenglikni ta'minlashning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o'rganish tanlangan bo'lib, tadqiqotga Qashqadaryo viloyatidan 145 nafar va Surxondaryo viloyatidan 144 nafar, jami 289 nafar respondent jalb etilgan.

Tahlil va natijalar. Biz ilmiy tadqiqot ishimizda oilada shaxslararo munosabatlarda kuzatiladigan nizoli holatlarni o'rganish va ularni bartaraf etish usullari tahlil qilishga harakat qildik. Tajriba-sinov ishlarimizda Qashqadaryo viloyatidan 145 nafar va Surxondaryo viloyatidan 144 nafar, jami, 289 nafar respondent jalb yetildi. Tadqiqot ishimizda, biz oilada shaxslararo munosabatlarda kuzatiladigan nizoli holatlarni o'rganish va ularning kelib chiqish

1-jadval. K.N.Tomasning "Nizoli vaziyatlarni hal qilish usullarini aniqlash" metodikasi shkalalari bo'yicha natijalar tahlili (n=289)

Shkalalar	Jinsi	M	σ	T
Raqobat	Erkak n= 143	7,2	1,30	-3,02*
	Ayol n=146	5,2	1,08	
Hamkorlik	Erkak n= 143	4,6	1,27	-2,78*
	Ayol n=146	6,1	1,30	
Murosaga kelish	Erkak n= 143	3,4	1,71	0,76
	Ayol n=146	4,0	1,24	
Vaziyatdan qochish	Erkak n= 143	4,6	1,78	-2,56*
	Ayol n=146	6,9	1,93	
Moslashish	Erkak n= 143	6,9	1,36	-2,03*
	Ayol n=146	4,1	1,03	

Izoh: * $p \leq 0,05$; *** $p \leq 0,001$.

sabablarini aniqlash maqsadida K.N.Tomasning "Nizoli vaziyatlarni hal qilish usullarini aniqlash" metodikasidan¹ foydalandik.

Metodikaning dastlabki "raqobat" omilida tadqiqot obyektlari orasida ishonchli farqlar kuzatildi ($t = -3,02^*$, $p \leq 0,05$). "Raqobat" omili boshqa omillarga nisbatan har ikkala guruhda yuqori natijani qayd etdi. Demak, K.N.Tomas uslubi bo'yicha belgilangan 5 ta mezon ichida raqobat motivatsiyasining yetakchi o'rinni egallashi oilada er-xotin munosabatlarida orasida ko'proq bahs-munozaraga moyillik, o'z "Men"ligini ustun qo'yish har qanday holatda o'z fikri va g'oyalarini boshqalarnikiga nisbatan ustun qo'yishga intilish kabi harakatlarning yaqqol namoyon etilishi bilan ko'zga tashlanadi. Erkaklarda ijtimoiy "Menlik" ning o'zgarishi o'ziga va o'zgalarga nisbatan noadekvat munosabatlarning shakllanishi bilan bevosita bog'liq ekanligi kuzatildi. Bundan tashqari K.N.Tomas metodikasi bo'yicha sinaluvchilarning ziddiyatli vaziyatlarda qo'llaydigan xatti-harakatlarida «raqobat» uslubida erkaklar ayollarga nisbatan faol bo'lib, oilaviy munosabatlarda yuzaga chiqishi mumkin bo'lgan nizolarni o'ziga xos tarzda, ya'ni bolalikdan meros bo'lib kelayotgan zo'ravonlikka moyil xulq-atvor omillari yordamida hal qilishni afzal ko'rishlari ham dalillandi.

"Hamkorlik" omilida ham sezilarli farqlar kuzatildi ($t = -2,78^*$, $p \leq 0,05$). Mazkur omil ayollarda yuqori natijani ko'rsatdi. Shuningdek, ayollarda kelishish va raqobatga nisbatan intilish susayib, asosan hamkorlik qilishga intilish kuchayib boradi. Buning sababini ular ko'rinishi murakkab vaziyatlardan chiqishning eng ma'qul yo'li hamkorlik

ekanligini anglaganliklari bilan izohlashimiz mumkin. Ayollarda hamkorlik va raqobatga nisbatan moslashishga intilish kuchli ekanligini anglatadi. Bu hol ayollarda ularning egiluvchanligi va yangi oila a'zolari bilan til topishishga intilishi kuchliligi bildiradi. Erkaklarda esa aksariyat hollarda shaxslararo munosabatda bir-biriga ko'maklashish va bir-biriga moslashish (o'zaro mutanosib tarzda harakat qilish)ni unchalik xush ko'rmasliklari yaqqol namoyon bo'ldi. Ehtimol, bizningcha ulardagi shaxslararo munosabat bilan bog'liq ziddiyatlar va ko'plab muammolarning mavjudligi ham xuddi shu sababli shakllangan bo'lishi mumkin.

"Murosaga kelish" omili har ikkala guruh tadqiqot obyektlari orasida ishonchli farqlar kuzatilmadi ($t = 0,76$, $p \leq 0,19$). Har ikkala guruhga mansub obyektlarda murosaga kelish shkalasi bo'yicha ko'rsatkichlar past bo'lib, o'zaro bir-biriga yon berish yo'li orqali ziddiyatli vaziyatlarda ishtirokchilarning bir murosaga kelishi, o'zaro hamkorlikda faoliyatni tashkil qilishi, oilaviy munosabatlarda egiluvchanlik hamda oila manfaatlarini o'z shaxsiy manfaatlaridan ustun qo'yish tendensiyasi kuchsiz darajada ekanligidan dalolat beradi.

Navbatdagi "vaziyatdan qochish" omili ayollarda yuqori darajada ekanligi kuzatildi ($t = -2,56^*$, $p \leq 0,05$). "Qochish" uslubi shaxsning o'z huquqlarini himoya qila olmaslik, muammoni yechimini topishda hech kim bilan hamkorlik qilmaslik va oilaviy nizolarni hal qilishdan qocholmaslik bilan bog'liq emotsional qarashlarda ayollar psixikasidagi o'ziga xos dominanta xulq-atvor omili erkaklarga qaraganda ustuvorlik kasb etib, keskin farqlanishlarni keltirib chiqaradi.

Metodikaning so'nggi "moslashish" omilida ham ishonchli farqlar kuzatildi ($t = -2,03^*$, $p \leq 0,19$). Ijtimoiy munosabatlarda moslashish xususiyati

¹ Тест описания поведения К.Томаса (адаптация Н. В. Гришиной) // Психологические тесты / Под ред. А. А. Карелина: В 2т. - М., 2001. -Т.2. С.69-77.

erkaklarda yuqori natijani ko'rsatdi. Bu esa erkaklarda o'z maqsadlari va o'zgaralar maqsadlarini birdek amalga oshirish uchun yo'naltirilgan harakatda faol ishtirok etish, oilaviy munosabatlarda ehtiyotkorlik bilan harakat qilish, o'z muomalasi va xulq-atvorini nazorat qilishga intilish, ijtimoiy rolli kutilmalarga javoban oiladagi tartib-qoidalarni o'zlashtirish hamda ularga moslashishga urinish xususiyati nisbatan ustunligini anglatadi.

Demak, yuqoridagi metodika natijalaridan ko'rinadiki, ayollarning oiladagi emotsional munosabatlariga va erkaklarda bolalik davridan meros bo'lib kelayotgan zo'ravonlikka moyil xulq-atvor omillari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik mavjudligi dalillandi. Bu esa, o'z navbatida, bizdan oilaviy munosabatlarda er-xotinlarda individual xulq-atvorning namoyon bo'lishiga ko'ra, oila-nikoh munosabatlari siklining buzilishlik ehtimolini hamda erkaklar tomonidan ayollarga nisbatan jismoniy kuch ishlatish motivlarini paydo bo'lishiga qanday omillar, motivlar yoki qadriyatlar ustuvor ahamiyat kasb etishini aniqlash zaruratini keltirib chiqaradi. Keltirilgan jadval interpretatsiyasiga asoslanib shuni ta'kidlash joizki, mazkur test yordamida ziddiyatli holatdan chiqish motivatsiyasi ko'rsatkichlarining har bir shaxsga xos dinamik xususiyatlar mavjud ekanligini kuzatish mumkin.

Xulosa. Oilada shaxslararo munosabatlarda kuzatiladigan nizoli holatlarni o'rganish va ularni bartaraf etish usullarini aniqlash maqsadida olib borilgan tadqiqot natijalari nazariy-amaliy jihatdan quyidagi **xulosalarni** shakllantirish imkonini berdi:

1) Oiladagi nosog'lom psixologik muhit oilada gender munosabatlarning buzilishini yuzaga keltiruvchi omil bo'lib ta'sir qilishi xususan, gen-

der tenglikning buzilishi faol agressiyali xulq shakli sifatida namoyon bo'lishi kuzatildi.

2) Oilada shaxslararo munosabatlar bilan bog'liq turli xil muammolarning paydo bo'lishi ushbu jarayondagi ziddiyatli holatlarga individual munosabat motivatsiyasining shakllanishi bilan xarakterlanadi. Ziddiyatli holatdan chiqish motivatsiyasi ko'rsatkichlari o'rganilganda aksariyat holatlarda "bahs munozara" va "o'zini chetga olish" mezonlari xarakterli ekani ma'lum bo'ldi. Chunki oilaviy muhitda yuzaga keladigan muammoli vaziyatlarni yechimi ko'p hollarda "bahs munozaraga kirishish" yoki "o'zini chetga olish" motivatsiyasiga asoslanadi.

3) Tadqiqot natijalari asosida ayollarda "bilvosita gender tengsizlik", "negativizm", "xafagarchilik", "verbal agressiya" omillari ustun bo'lsa, erkaklarda esa "jismoniy gender tengsizlik", "tajanglik", "shubhalanuvchanlik" hamda "aybdorilik hissi" omillari yuqori darajada ekanligi empirik jihatdan asoslandi.

4) "Nizoli vaziyatlarni hal qilish usullarini aniqlash" metodikasi orqali natijalarga ko'ra ayollarda "hamkorlik", "murosaga kelish", "vaziyatdan qochish" strategiyalari ustun bo'lsa, erkaklarda "raqobat" va "moslashish" omillari yuqori darajada ekanligi asoslandi.

5) Oilaviy munosabatlarda yuzaga keladigan gender tengsizlikning sabablari orasida yer-xotin munosabatlarida agressiv xulq omillari, zo'ravonlik xulqi oqibatlari keskinlashayotgan ziddiyatda (yer-xotinlar o'rtasidagi munosabatlar) bir-birini tushunmaslik oiladagi shaxslararo munosabatlardan kelib chiqadigan muammolar yer yoki xotinning xarakter xususiyatlariga o'ziga xos tarzda bog'liqligi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Yoziyev E. Ta'lim muassasalarida gender menejmentning zamonaviy psixologik masalalari: muammo, yechim va takliflar. // "Zamonaviy ta'lim / Современное образование" ilmiy-amaliy ommabop jurnali. 2017, 3-son.
2. Karimova V. Oila psixologiyasi. – T.: "Fan va texnologiya", 2008. - 170 bet.
3. Karimov X. Oilaviy munosabatlar psixologiyasi. – Q.: "Fan va ta'lim", 2024. - 168 b.
4. Fayziyeva M., Jabborov A. "Oilaviy munosabatlar psixologiyasi". –T.: "Yangi asr avlodi", 2007. - 144 b.
5. Shoumarov G'.B. Oila psixologiyasi.: Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'quvchilari uchun. - T.: Sharq. - 140 b.